UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA INKLYUZIV TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Musurmanova Sh.I.,GDPI dotsenti v.b.
Egamqulova M.T.,GDPI 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada uzluksiz ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Inklyuziv ta’limning mohiyati, pedagogik va psixologik yondashuvlari, shuningdek, O‘zbekistonda bu sohada olib borilayotgan islohotlar yoritilgan. Muallif uzluksiz ta’lim tizimining har bir bosqichida imkoniyati cheklangan bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish zarurligini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, uzluksiz ta’lim, pedagogik yondashuv, ilmiy-nazariy asoslar, ta’lim islohotlari, nogironligi bo‘lgan bolalar, differensial yondashuv, ta’lim tizimi, boshlang‘ich ta’lim, moslashtirilgan o‘quv muhiti.

Annotation. This article analyzes the scientific and theoretical foundations of organizing inclusive education in the system of continuing education. The essence of inclusive education, pedagogical and psychological approaches, as well as reforms being carried out in this area in Uzbekistan are highlighted. The author justifies the need to create equal opportunities for children with disabilities at each stage of the continuous education system.

Key words: inclusive education, continuing education, pedagogical approach, scientific and theoretical foundations, educational reforms, children with disabilities, differential approach, educational system, primary education, adapted learning environment.

So‘nggi yillarda dunyo ta’lim tizimida inson huquqlari, teng imkoniyatlar va ijtimoiy adolat tamoyillari asosida qurilgan inklyuziv ta’lim modeliga katta e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ham ushbu global tendensiyani hisobga olib, barcha ta’lim bosqichlarida, jumladan, uzluksiz ta’lim tizimi doirasida inklyuziv yondashuvni shakllantirishga kirishdi. Inklyuziv ta’lim nogironligi bo‘lgan yoki rivojlanishida turli xil cheklovlarga ega bo‘lgan bolalarni sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda o‘qitish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirishni nazarda tutadi. Ushbu maqolada uzluksiz ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari, pedagogik yondashuvlar va mavjud qonunchilik asosida olib borilayotgan islohotlar tahlil qilinadi.

Jahonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish amaliyoti tendensiyasini yanada takomillashtirishda imkoniyati cheklangan o’quvchilarni mehnat bozoriga mos raqobatbardoshlilik, muhitga tez moslashuvchanlik, muammoli vaziyatlarga nisbatan mobillilik, innovatsion kasbiy salohiyat elementlarini o’zida qaror toptirish hamda pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni ta’minlash orqali hayot xavfsizligini ta’minlash talab etiladi.

Maqolani yozishda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi:

Tahlil – milliy va xorijiy tajribalar, qonunchilik hujjatlari, statistik ma’lumotlar o‘rganildi; taqqoslash – O‘zbekiston ta’lim tizimidagi inklyuzivlik holati boshqa davlatlar tajribasi bilan solishtirildi; empirik kuzatuv – boshlang‘ich sinfda

olib borilgan inklyuziv ta’lim jarayonlari amaliy jihatdan tahlil qilindi; deduktiv yondashuv – umumiy nazariy konsepsiyalardan xulosa chiqarish asosida ilmiy asoslar belgilandi.

1. Ilmiy asos: Inklyuziv ta’lim psixologik-pedagogik nazariyalar asosida quriladi. Lev Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi, G. S. Kostyuk, A. A. Leontevlarning faoliyat yondashuvi inklyuziv ta’limda samarali qo‘llaniladi.

2. Normativ-huquqiy baza: O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni joriy etish uchun mustahkam me’yoriy asoslar yaratilgan (2021–2025-yillarga mo‘ljallangan “Inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi”, “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi qonun va b.).

3. Uzluksizlik tamoyili: Inklyuziv ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining har bir bosqichida qo‘llanilishi zarur. Maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha pog‘onalarda barqaror va moslashtirilgan ta’lim muhiti yaratilmoqda.

4. Pedagogik yondashuvlar: Differensial yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, ko‘makchi texnologiyalar, maxsus metodlar samaradorligini ko‘rsatmoqda.

5. Amaliyotda muammolar: Mutaxassislar yetishmasligi, infratuzilmaning to‘liq tayyor emasligi, jamiyatda ijtimoiy stereotiplar mavjudligi hali ham inklyuziv ta’limning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni uzluksiz ta’lim tizimiga joriy etish ijobiy sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Biroq, tizimning to‘liq ishlashi uchun nafaqat me’yoriy asoslar, balki amaliy qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlar, malakali kadrlar tayyorlash, oilalar va jamiyatni bu borada xabardor qilish muhimdir. Boshqa davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati faqat maktab emas, balki butun jamiyat ishtirokiga bog‘liq. Shuningdek, ta’lim muassasalarida moslashtirilgan dasturlar, maxsus adabiyotlar va texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Shu asosda inklyuziv ta’lim real va barqaror ijtimoiy hodisaga aylanadi.

Inklyuziv ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining ajralmas qismi sifatida har bir bolaning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ularga teng huquqli ta’lim olish imkonini beradi. Bu jarayon faqat pedagogik emas, balki ijtimoiy va ma’naviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun zarur huquqiy va metodik asoslar shakllanmoqda, biroq amaliyotda uni to‘liq joriy etish uchun ko‘plab vazifalarni hal etish lozim: mutaxassislar tayyorlash, moddiy-texnik bazani rivojlantirish, oilalar bilan ishlash tizimini kuchaytirish zarur. Mazkur yo‘nalishdagi harakatlar kelajakda inklyuziv, insonparvar va adolatli jamiyatni barpo etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020.

2. “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya. BMT, 2006 yil.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-martdagi PF-6180-son Farmoni.

4. Musurmonova, Sh. I. (2021). EXTRACURRICULAR EDUCATIONAL WORK IN PROVIDING ENVIRONMENTAL EDUCATION TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS. In Актуальные вопросы современной науки и образования (pp. 254-256).

5. Sayfurova, D. Inklyuziv ta’lim asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2023.
6. Qurbonov, A., Soliyeva, M. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflar jamiyati nashriyoti, 2021.